N: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

TAQLID SO‘ZLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Khaydarova Khurshida Fayzulla qizi
Qarshi shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
xurshidaxaydarova1234@gmail.com

Annotatsiya: Ma’lum tilning boyligi, rang-barangligi frazeologik birliklarning amaliy ahamiyati bilan bog‘liq. Bu esa xalq tilida ko‘p uchraydigan iboralarni jamlash, o‘rganish va izohli lug‘atlarga kiritish zaruratini yuzaga keltiradi. O‘zbek tilida mavjud frazeologik birliklarning qamrovi hozirgi izohli lug‘atlarda to‘liq emas, jumladan taqlid so‘zli frazeologik birliklar ham kam uchraydi. Bu esa umumxalq tilidagi taqlid so‘zlarni o‘rganish va leksikografik tadqiq qilish zaruratini ko‘rsatadi. Maqola taqlid so‘zlarning o‘rganilishi, bu mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, o‘zbek tilidagi taqlid so‘zli frazeologik birliklar hamda ularning izohli lug‘atlarga kiritilishi, statistik va qiyosiy tahlillar asosida ilmiy izlanishlar olib borilganligi bilan ahamiyatlidir. O‘rganilgan ma’lumotlar va amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”ga kiritilgan taqlid so‘zlar ishtirokidagi xalq tilida ko‘p uchraydigan frazeologik birliklar alohida tasnif qilinib, ularning 2006-yil nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan o‘rinlari aynan keltirib o‘tildi. Buning natijasida hozirgi izohli lug‘atlarda uchramaydigan taqlid so‘zli frazeologik birliklar ro‘yxati shakllandi va izohli lug‘atning keyingi nashrlari uchun tavsiya sifatida izoh va illyustrativ misollari bilan birgalikda jadval asosida berildi. Frazeologik birliklar leksik-semantik tahlil qilinib, ularning polisemantik, sinonimik, omonimik, graduonimik ma’nolari misollar asosida yoritib berildi. Ma’lum tildagi izohli lug‘atlar shakllantirilayotganda nafaqat leksemalar, balki umumxalq tilidagi faol frazeologik birliklarni kiritish orqali bosh so‘z leksikografik talqinini takomillashtirish va boyitish mumkinligi bo‘yicha tahlillar va xulosalar asosida tavsiyalar keltirildi.

Kalit so‘zlar: izohli lug‘at, taqlid so‘z, frazeologik birlik, frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik omonimiya, graduonimiya, so‘z birikmasi, gap, ko‘chma ma’no.

Tadqiqot maqsadi

Taqlid so‘zlar ishtirokidagi frazeologik birliklar statistik tahlil, qiyoslash va tavsiflash asosida tadqiq qilindi. Xususan, “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati” kitoblariga kiritilgan taqlid so‘zlar ishtirokidagi xalq tilida ko‘p uchraydigan frazeologik birliklar hamda 2006-yil nashr etilgan izohli lug‘atga kiritilgan taqlid so‘zli frazeologik birliklar statistik tahlil qilinib, xalq tilida mavjud variantlari va ularning izohli lug‘atga kiritilish o‘rinlari bo‘yicha ma’lumotlar berildi.
5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da taqlid so‘zlarning iboralar bilan berilgan o‘rinlari **37** tani **7%** tashkil etadi. Masalan,

yuragi bez-bez qilmoq	*boshi tars yorilib ketmoq*	*po‘k etib*
yuragi gurs-gurs urmoq	*yuragi duk-duk urmoq*	*dong qotmoq*

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2022-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

ing yo'q, jing yo'q	*ko'zini lo'q qilmoq*	*dong' qotmoq*
yuragi gup-gup urmoq	*chars-churs qilmoq*	*yuragi jiz etmoq*
peshonasi taq etib devorga tegmoq	*ko'ziga g'ilt yosh olmoq*	*g'ing demoq*
tiq etgan tovush (ovoz, xabar) yo'q	*yuragi jig' etmoq*	*zir titramoq*
ko'ngil gum-gum ketmoq	*shilq tushmoq*	*laq tushmoq*
burnidan (yoki yuzidan) chak-chak zahar tommoq	*churq etmadi*	*puf sassiq*
chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi	*g'iq etmaslik*	*po'rt uchmoq*
yuragi shig' etib ketmoq	*chaqchaq urib*	

Javdalda ko'rsatilgan iboralar izohli lug'atda quyidagicha tavsiflangan. Masalan,

LAQ laq tushmoq, laqqa tushmoq. *Sen har kim har nima desa,* ***laq tushib*** *ishonib ketaverma, - dedi Mamasodiq.* S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.

LO'Q ko'zini lo'q qilib. Ko'zni uzmay, indamay, bez bo'lib. *Umid kirganda ham, chiqqanda ham* ***ko'zlarini lo'q qilib qarab*** *turuvchi bu xotinni avvallari xush ko'rmasdi.* Mirmuhsin, Umid.

TAQ peshonasi taq etib devorga tegmoq. O'z bilganidan qolmay, oxiri ishi voy bo'lmoq. ***Peshonang devorga taq etib tekkandan*** *so'nggina ko'zing ochildi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

TARS boshi tars yorilib ketmoq. *Boshim juda qattiq og'riyapti. U [Akbarali] hozir* ***boshi tors yorilib ketadigandek*** *otilib yo'lakka chiqdi.* A.Muxtor, Chinor.

Yuragi tors yorilib ketmoq *Juda xit, xunob bo'ldi, yuragi siqilib ketdi. Yerga kirgudek bo'lib o'tirgan Valivoydan ortiq sado chiqmagach, Jo'raning* ***yuragi tors yorilay*** *dedi-da: - Men ketdim! – deb o'rnidan qo'zg'aldi.* H.Nazir, Onaizor.

SHILQ shilq tushmoq *st.* Osongina ishonmoq, taslim bo'lmoq, ko'nmoq. *To'ra Salimaning dag'dag'asini esladi-yu, Samadning gapiga* ***shilq tushdi****-qoldi.* M.Ismoiliy, Bizning roman.

Shilq etib kuchini, madorini yo'qotib; holdan ketib. *Muharram Elmurodning qo'liga* ***shilq etib*** *tushdi.* Shuhrat, Shinelli yillar.

SHIR chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi. Har narsadan hadiksiraydigan, salga cho'chiyveradigan, juda yuraksiz, qo'rqoq odam haqida aytiladigan ibora. *[Xolmat] Pichoqni shu Hasan akang uradimi?!* ***Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi****-yu buning!* Hamza, Boy ila xizmatchi.

Frazeologizmlar tuzilishiga ko'ra, so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan, semantik jihatdan yaxlit, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan, ikki va undan ortiq so'zlarning turg'un holatdagi birikmasidan tashkil topgan lug'aviy birlik hisoblanadi. [Турсунов М., 2021]

Mazkur ta'rif asosida 2006-yil nashr etilgan izohli lug'atdagi iboralarni tasniflaydigan bo'lsak, *zir titramoq, laq tushmoq, laqqa tushmoq, ko'zini lo'q qilib, puf sassiq, po'rt uchmoq, chaqchaq urib, shilq tushmoq* kabi iboralarni so'z birikmasi shaklidagi iboralarga, *yuragi gup-gup urmoq, yuragi jiz etmoq, peshonasi taq etib devorga tegmoq, tiq etgan tovush (ovoz, xabar) yo'q, boshi tars yorilib ketmoq, yuragi shig' etib ketdi, yuragi shuv etib ketdi, ko'ziga g'ilt yosh oldi* kabi iboralarni gap shaklidagi iboralarga kiritish mumkin.

"Ingliz va o'zbek tillarida metaforik iboralarning lingvokognitiv tahlili" dissertatsiyasida frazeologik birliklarning o'zaro sinonimik, antonimik, variantdoshlik, omonimik xususiyatlarini M.I.Sidorenko, E.I.Dibrova kabi olimlar o'z tadqiqotlarida izohlaganliklari

SN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. [Турсунов М., 2021] Iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turli ko'rinishlari uchraydi. Shuningdek, iboralarda ko'p ma'nolilik hodisasi ham kuzatiladi. Lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'siri frazeologiya sohasida polisemiyaning shakllanishiga sabab bo'ladi. [Рахимова С., 2022]

2006-yil nashr etilgan izohli lug'atda mavjud **shilq** taqlid so'zi ishtirokidagi iborada ko'p ma'nolilik kuzatiladi.

SHILQ shilq tushmoq st. Osongina ishonmoq, taslim bo'lmoq, ko'nmoq. *To'ra Salimaning dag'dag'asini esladi-yu, Samadning gapiga* ***shilq tushdi****-qoldi*. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] M.Ismoiliy, Bizning roman.

Yuragi zir etmoq, yuragi shuv etmoq, yuragi gup-gup urib ketmoq [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] iboralari tarkibidagi taqlid so'zlar umumiy ma'no ifodalab frazeologik sinonimiyani hosil qiladi. **Yuragi shig' etib ketdi** *ayn.* **yuragi shuv etib ketdi** [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] iboralari ham frazeologik sinonimiya sifatida kiritilgan.

Taqlid so'zli iboralarning shakldoshlik hosil qilgan o'rinlari ham kuzatiladi. Masalan,

JIZ Yuragi jiz etmoq 1) sevib qolmoq. *To'lqinjon Hurini birinchi ko'rgan kuniyoq* ***yuragi jiz etgan*** *edi.* 2) achinmoq, xafa bo'lmoq. *Ertalab Rayimberdi tog'a keldi. U Ikromning bir oyog'i yo'qligini ko'rib* ***yuragi jiz etib*** *ketdi*. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] S.Ahmad, Ufq.

PO'RT Po'rt uchmoq darhol hushidan ketmoq, dong qotmoq; til tortmay o'lmoq. *Mast bo'lib,* ***po'rt uchdi.*** *Parvardigor nega bu shaytonlarni* ***po'rt uchirib yubormayapti****?* [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] Sh.Toshmatov, Tongdagi ko'lanka.

Iboralarda graduonimiya, ya'ni ma'no-munosabatiga ko'ra darajalanish hodisasini ham kuzatish mumkin. Masalan, 2006-yil nashr etilgan izohli lug'atda mavjud **yuragi duk-duk urmoq, yuragi gup-gup urmoq, yuragi gurs-gurs urmoq** iboralari tarkibidagi **duk-duk, gup-gup, gurs-gurs** taqlid so'zlar darajalanish xarakteridagi iboralarni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Bunda **gup-gup** tovushi **duk-duk** tovushiga nisbatan kuchliroq, **gurs-gurs** tovushi **gup-gup** tovushiga nisbatan kuchliroq tovushga taqlidni anglatadi. *Eshik ochilishi bilanoq Hasanning* ***yuragi duk-duk urib,*** *rangi oqarib ketdi. [Otabekning] Haligi bosinqirashidan* ***yuragi gup-gup urar*** *va vujudini ter bosgan edi. Sherbek o'z ovozidan o'zi qo'rqib ketdi:* ***yuragi objuvozdek gurs-gurs urardi.*** [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008]

Frazeologik birliklar qancha so'zdan tashkil topishidan qat'iy nazar ular yaxlit ma'noni anglatadi. Ushbu yaxlit ma'no ularning butunligicha yoki komponentlaridan birining ko'chma ma'nosi asosiga qurilgan bo'ladi. Demak, frazeologik birliklar tarkibidagi barcha so'z komponentlari ko'chma ma'noda qo'llanilsa, ularda ta'sirchanlik, obrazlilik bo'yog'i juda kuchli bo'ladi. [Турсунов М., 2021]

Mazkur fikrga misol sifatida **burnidan (yoki yuzidan) chak-chak zahar tomadi** [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] iborasini keltirish mumkin.

Natijalar

"O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da taqlid so'zlar ishtirokidagi iboralar 23 o'rinda uchraydi:

1-jadval

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

barq urib	*“gah” desa qo‘liga qo‘nadigan qilib olmoq*	*lom-mim demaslik*
dang qotib	*yuragi tars yorilguday bo‘ldi*	*dong qotib*
do‘q urmoq	*ichi tars yorilguday bo‘ldi*	*ko‘zini chirt yumib*
“hash-pash” deguncha	*adi-badi aytishmoq*	*tap tortmaslik*
churq etib	*chumchuq “pir” etsa, yuragi “shir” etadi*	*churq etmaslik*
yuragi dov bermadi	*yuragini taka-puka qilib yubormoq*	*yuragi taka-puka*
dov berolmay	*yuragi shig‘ etib ketdi*	*yuragi shuv etib ketdi*
ichi tars yorilgiday bo‘ldi	*ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi* [Раҳматуллаев Ш.,1978]	

Mazkur iboralardan *dong qotib, chumchuq “pir” etsa, yuragi “shir” etadi, churq etib, churq etmaslik, yuragi tars yorilguday bo‘ldi, yuragi shig‘ etib ketdi* 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchraydi, qolganlari kiritilmagan. Jadvalda mavjud yuqoridagi frazeologik birliklar izohli lug‘atlarning keyingi nashrlariga kiritilishi uchun tavsiya sifatida ham keltirildi. Masalan,

2-jadval

Adi-badi aytishmoq 1. Turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashmoq. *Ba’zi gaplarini ichimda “nafsil-amr” deb tinglar edim. Adi-badi aytishib qizning uyiga kelganimizni ham bilmay qolibmiz.* G‘.G‘ulom, Yigit. 2.So‘z tashlamoq, janjallashmoq. *Arzimagan narsaga adi-badi aytishib o‘tirmanglar, o‘g‘lim, uyat bo‘ladi.* H.Nazir, Javob.
Barq urib gurkirab, g‘oyat tez, yashnab-yashnab. *Ikkinchi chopiqdan chiqarilgan g‘o‘zalar barq urib rivojlanmoqda.* R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.
Dang qotib hech narsani sezmas darajada qattiq uxlamoq. *Yigitlar bo‘lsa dong qotib uxlashardi.* Mirmuhsin, Oq marmar.
Do‘q urmoq qo‘rqitish maqsadida baqirib-chaqirib gapirmoq. *E aka, Samadov sizga do‘q urgani yo‘q.* P.Qodirov, Uch ildiz.
“Hash-pash” deguncha juda qisqa muddatda, tezda. *Kech tushib qoldi, “hash-pash” deguncha tunning qorong‘i chodiri qoplaydi har yoqni.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.
Yuragini taka-puka bo‘ldi ruhan notinch bo‘lmoq. *Bir qarash bilan yuragimni taka-puka qilib tashladi.* “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”dan.
Yuragi dov bermadi cho‘chib botina olmaslik. *Uch-to‘rt marta inga tomon talpinib uchib bordi-yu, biroq dov berolmay, daraxtga kelib qo‘ndi…* M.Muhamedov, Kichik garnizon.
Yuragi shuv etib ketdi bir lahza ich-ichidan qo‘rqish aralash hayajonlanmoq. *Ne ko‘z bilan ko‘rsin, to‘riq otning ustida hech kim yo‘q. Yuragi shuv etib ketdi.* G‘.G‘ulom, Jo‘rabo‘za.
Dov berolmay yuragi dov bermadi
Ichi tars yorilgiday bo‘ldi yuragi tar yorilib keta yozdi
“Gah” desa qo‘liga qo‘nadigan qilib olmoq juda itoatkor qilib olmoq. *Muslimovga o‘xshatib “mayin qilib olgandan keyin esa “E, ilgari dami juda baland edi, bir qo‘rqitib, “gah” desa, qo‘lga qo‘nadigan qilib oldim”, - deyardi.* P.Qodirov, Uch ildiz.
Lom-mim demaslik hech narsa demaslik, e’tiroz bildirmaslik *“Lom-mim” demay gapirganning og‘ziga, jim turganning ko‘ziga tikilib o‘tiradi.* I.Rahim, Hilola.

N: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

Ko‘zini chirt yumib tavakkal qilib ... *muhabbatga ko‘r-ko‘rona itoat qilsa, ko‘zini chirt yumib, oqimga qarab oqsa – buning nimasi erk?* P.Qodirov, Uch ildiz.
Tap tortmaslik qo‘rqmay botinmoq, hayiqmaslik. *Kechalari ham dalaga chiqishdan tap tortmaydi.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.
Ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi olayib qaramoq *G‘anijonning ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi* [Раҳматуллаев Ш.,1978] S.Ahmad, Xotiralar.

“O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da taqlid so‘zlar ishtirokidagi iboralar 54 o‘rinda uchraydi:

3-jadval

adi-badi aytishmoq	*alang-jalang bo‘lib qolmoq*	*barq urmoq*
alg‘ov-dalg‘ov qilmoq	*bir qop yong‘oqday shaldir-shudur*	*dali-g‘uli*
apoq-chapoqlashmoq	*“gah” desa, qo‘lga qo‘nadigan qilib olmoq*	*dang qotib*
gapni cho‘rt kesmoq	*chuv tushmoq*	*dong qotdi*
“hash-pash” deguncha	*ichi tars yorilguday bo‘ldi*	*he yo‘q, be yo‘q*
lom-mim demay	*ko‘zining ola-kulasi chiqib ketdi*	*ko‘zi taka-puka*
po‘k berib qo‘ymoq	*lop desa, ola qopni ko‘tarib ketmoq*	*ko‘zini chirt yumib*
qulog‘i ding bo‘ldi	*lov etib yonib, pis etib o‘chmoq*	*churq etmaslik*
tata-tat, usta nadirmat	*pashsha “g‘ing” desa eshitiladigan*	*po‘m chiqmoq*
tit-pit(i)ni chiqarmoq	*“puf” desa, Buxoroga uchadigan*	*tap tortmaslik*
dong qotmoq	*tars yorilib ketguday bo‘lmoq*	*tang qoldirmoq*
to‘ng bo‘yin	*yuragi jig‘ etdi*	*toy-toy turmoq*
uyqu tang qilmoq	*yuragi shuv etib ketdi*	*tong qotmoq*
yuragi jaz etdi	*yuragi tars yorilib keta yozdi*	*yuragi jiz etdi*
yuragi shug‘ etib ketdi	*yuragi taka-puka bo‘ldi*	*jig‘ etib ketdi*
yuragi shig‘ etib ketdi	*yuragi tors yorilib keta yozdi*	*g‘ing demaslik*
sharti ketib parti qoldi	*chumchuq “pir” etsa, yuragi “shir” etadi*	*g‘iring demaslik*
churq etmaslik	*chuvi chiqdi*	*chaqchaq urib* [Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K., 2022]

Mazkur iboralardan *dong qotdi, tars yorilib ketguday bo‘lmoq, yuragi tars yorilib keta yozdi, yuragi jiz etdi, yuragi jig‘ etdi, yuragi shig‘ etib ketdi, g‘ing demaslik, chaqchaq urib, chumchuq “pir” etsa, yuragi “shir” etadi, churq etmaslik* 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchraydi, qolganlari kiritilmagan. Jadvalda mavjud yuqoridagi frazeologik birliklar izohli lug‘atlarning keyingi nashrlariga kiritilishi uchun tavsiya sifatida ham keltirildi.

4-jadval

Adi-badi aytishmoq 1. Turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashmoq. *Ba’zi gaplarini ichimda “nafsil-amr” deb tinglar edim. Adi-badi aytishib qizning uyiga kelganimizni ham bilmay qolibmiz.* G‘.G‘ulom, Yigit.

SN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

2.So‘z tashlamoq, janjallashmoq. *Arzimagan narsaga adi-badi aytishib o‘tirmanglar, o‘g‘lim, uyat bo‘ladi.* H.Nazir, Javob.
Alang-jalang bo‘lib qolmoq nima qilishni bilmay qolmoq, hayron bo‘lib qolmoq *Isoqvoyning ko‘zi quvonganidan alang-jalang bo‘lib qoldi.* Mushtum.
Alg‘ov-dalg‘ov qilmoq to‘s-to‘polon qilmoq *Urush qishloqni alg‘ov-dalg‘ov qilib yubordi*. I.Rahim. Chin muhabbat.
Barq urmoq yashnamoq, jilolanmoq *Boqishlarida allaqanday mayinlik, mehr barq urardi.* R.Fayziy, Chanoqqa tomgan qon.
Bir qop yong‘oqday shaldir-shudur Bor gapni ochiq ko‘ngillilik, xushchaqchaqlik bilan to‘kib soladigan. *San bir qop yong‘oqday shaldir-shuldur eding, opang ham sho‘x, qaqildoqqina edi*. Oybek, Qutlug‘ qon.
Dali-g‘uli ochiq, hushchaqchaq. *O‘rtog‘im birdan kulib yubordi, o‘zi juda serzavq, dali-g‘uli, sho‘x bola.* Oybek, Bolalik.
Dang qotib hech narsani sezmas darajada qattiq uxlamoq. *Yigitlar bo‘lsa dong qotib uxlashardi.* Mirmuhsin, Oq marmar.
“Gah” desa, qo‘lga qo‘nadigan qilib olmoq juda itoatkor qilib olmoq. *Lekin bizning Boqijon ham xiyla pishiq yigit; u mahmadonani o‘z quchog‘iga olgandan keyin, “gah” desa, qo‘liga qo‘nadigan qilib oladi*. Oybek, oltin vodiydan shabadalar.
Gapni cho‘rt kesmoq biror fikr oxiriga yetmasdan unga o‘z so‘zlarini keskin ravishda kiritmoq. *Adolat bir xo‘mraydi-da, uning gapini shartta kesib qo‘ydi.* I.Rahim, Chin muhabbat.
“Hash-pash” deguncha juda qisqa muddatda, tezda. *Kech tushib qoldi, “hash-pash” deguncha tunning qorong‘i chodiri qoplaydi har yoqni.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.
He yo‘q, be yo‘q qilayotgan ishini mutlaqo tushuntirmay, hech qanday izoh bermay. *Uning he yo‘q, be yo‘q, dabdurustdan to‘nini teskari kiyib olganligi Nasibaning nafsi izzatiga qattiq tegdi.* H.Nu’mon, Yoshlikda bergan ko‘ngil.
Lom-mim demay hech narsa demaslik, e’tiroz bildirmaslik *“Lom-mim” demay gapirganning og‘ziga, jim turganning ko‘ziga tikilib o‘tiradi.* I.Rahim, Hilola.
Lop desa, ola qopni ko‘tarib ketmoq xato tushunish oqibatida noto‘g‘ri ish qilib qo‘ymoq. *Siz lop desa, ola qop olib yugurish o‘rniga, ana shunaqa ig‘vogarlarni tutib berishingiz kerak*. S.Ahmad, Hukm.
Lov etib yonib, pis etib o‘chmoq qanday tez paydo bo‘lsa, shunday tez yo‘q bo‘lmoq; uzoq davom etmaslik. *Lekin ma’lum qurilishga ish haqi bilan bog‘lanmagan, ya’ni yollanmagan odamlar bir kun tashabbus ko‘rsatar, ikki kun tashabbus ko‘rsatar… Axir, bu lov etib yonib, pis etib o‘chadigan bir narsa-ku. Keyin nima bo‘ladi?* A.Muxtor, Opa-singillar.
Ko‘zining ola-kulasi chiqib ketdi olayib qaramoq *G‘anijonning ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi.* S.Ahmad, Xotiralar.
Ko‘zi taka-puka qarashi notinch, bezovta, olazarak. *U o‘zini allaqanday qovushmagandek sezar, tayyorliksiz doklad qilgani kelgan notiqdek, ko‘zi taka-puka bo‘lar edi.* Oydin. Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit.
Ko‘zini chirt yumib tavakkal qilib *Muhabbatga ko‘r-ko‘rona itoat qilsa, ko‘zini chirt yumib, oqimga qarab oqsa – buning nimasi erk?* P.Qodirov, Uch ildiz.

N: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

Pashsha “g‘ing” desa eshitiladigan har qanday tovushsiz, mutlaq. *O‘ktam hovliga bet-qo‘li shira, changga botgan bir to‘da bolalar bilan qurshalgan holda kirdi. Haligina pashsha “g‘ing” desa, eshitiladigan jimjit hovli qiy-chuvga to‘ldi.* Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.
Po‘k berib qo‘ymoq qo‘rqish, cho‘chish bilan sir tutilgan narsani bildirib, sezdirib qo‘ymoq. *Nima balo bo‘ldi, ering ikkovimizning ishimizni sezib qolgan deyman-ov yoki po‘k berib qo‘ydingmi? Bugun do‘konidan bir miriga nos olgani borsam, juda it xo‘mrayishi bilan qarab, bir miriga bergan nosiga nosqovog‘im yarim ham bo‘lmadi.* G‘.G‘ulom, Shum bola.
Po‘m chiqmoq urishib, arazlab, bir-biri bilan gaplashmay qo‘ymoq. *Qizim bunaqa qattiq gap eshitmagan edi. O‘ksinib, ko‘ziga jiqqa yosh oldi. Yana salgina qo‘shimcha qilsam, ho‘ngrab yuboradi. Keyin sevimli qizcham bilan ham po‘m chiqib qolamiz. Bu xavfli.* I.Rahim, Hilola.
“Puf” desa, Buxoroga uchadigan juda yengil va yupqa. *Boshqa ayollar ayvonlarga o‘tkazilib, kichkina iflos patnislarda “puf” desa, Buxoroga uchadigan taxir chap-chap non, qurtloqi turshak, jiyda va tishga yopishsa, ombir bilan ham sug‘urib olish qiyin bo‘lgan yopishqoq popuk tortildi*. Oybek, Qutlig‘ qon.
Qulog‘i ding bo‘ldi diqqat bilan tinglashga tayyor bo‘lmoq. *Uning qulog‘i ding bo‘lib, ko‘zi alangladi: Saodat ko‘rinmasmikin, bolaning ovozi eshitilmasmikin?* I.Rahim, Ixlos.
Tata-tat, usta nadirmat behuda, natijasiz shovqin-suron, quruq gap-so‘z. *Mana, xabaringiz bordir, fabrika qurmoqchimiz… Bilim kerak axir qurish uchun. Tata-tat, usta Nadirmat bilan ish bitmaydi.* A.Muxtor, Opa-singillar.
Tit-pit(i)ni chiqarmoq burda-burda qilib tashlamoq. *Ammo-lekin unga tuhmat qilganning tit-pitini chiqaramiz.* S.Ahmad, Hukm.
Tap tortmaslik qo‘rqmay botinmoq, hayiqmaslik. *Kechalari ham dalaga chiqishdan tap tortmaydi*. Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.
Tang qoldirmoq tong qoldirmoq, kutilmagan holda hayratlantirmoq. *Bir kishining orzu-umidi xato yozilgan bir harfday bemalol chizib tashlangani uni tong qoldirdi.* P.Qodirov, Uch ildiz.
Toy-toy turmoq g‘oz-g‘oz turmoq. *Omontoyning qizi Bo‘stonxon toy-toy turadigan bo‘lib qolibdi.* S.Ahmad, Cho‘l shamollari.
Tong qotmoq dong qotmoq.
To‘ng bo‘yin bo‘yin bermaydigan, bo‘yin egmaydigan, o‘jar *Bo‘yin egib har to‘ng bo‘yin daryolar, Biz istagan yo‘lga burildi, yurdi.* Habibiy.
Uyqu tang qilmoq uyqu talabi kuchaymoq *Nihoyat, kuta-kuta uyqusi tang qilgach, o‘rniga cho‘zilib…uxlab qolganini o‘zi ham sezmay qoldi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.
Yuragi jaz etdi sevishga chorlovchi hissiyot paydo bo‘ldi *O‘sha birinchi ko‘rganimdayoq yuragim jaz etibdimi bo‘ldi, mehri hali-hali ketmaydi.* R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.
Yuragi taka-puka bo‘ldi ruhan notinch bo‘lmoq. *Saida unga tayinli javob bermadi, kimni saylash majlisning ixtiyorida deganga ishora qildi-yu, shu bilan Usmonjonning yuragini taka-puka qilib qo‘ydi.* A.Qahhor, Sinchalak.
Yuragi shuv etib ketdi bir lahza ich-ichidan qo‘rqish aralash hayajonlanmoq. *Ne ko‘z bilan ko‘rsin, to‘riq otning ustida hech kim yo‘q. Yuragi shuv etib ketdi.* G‘.G‘ulom, Jo‘rabo‘za.
Yuragi tors yorilib keta yozdi yuragi tars yorilib keta yozdi
G‘iring demaslik hech qanday monelik, to‘sqinlik qilmaslik *Fakultetimizga kirsam, har qancha topshiriq bo‘lsa ham, g‘ing demay bajaraman.* P.Qodirov, Uch ildiz.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2022-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

Sharti ketib parti qoldi qarib, munkillab qolmoq *Qudratli to‘daning sharti ketib parti qolishini, o‘shanda o‘ziga qiyin bo‘lishini o‘ylab o‘tirarmidi shunday damlarda.* Sh.Bo‘tayev, Qora tuman.
Churq etmaslik hech narsa demaslik *Ortga qaytishni ma’qul ko‘rmay, chiqim sal ko‘proq bo‘lsa ham, yo‘lovchi mashinaga o‘tirdilar. Yo‘l-yo‘lakay churq etmasdan ketdilar.* T.Malik, Murdalar gapirmaydi.
Chuvi chiqdi noto‘g‘ri, nomaqbul ekani vaqt o‘tgach ma’lum bo‘ldi *“Bu xotin hali qo‘limga qo‘nadi. Pullarni o‘zi tarqatadi. O‘zining ulushidan boshi osmonda. Agar “u yoq”ning odami bo‘lsa, chuvi chiqdi.* T.Malik, Charxpalak.
Chuv tushmoq behudaga sarflamoq, ayrilib qolmoq *Ko‘klamda ona-bola tog‘ etagidagi qo‘riqqa chiqib, belkurak bilan yer ag‘darib, lalmi bug‘doy ekishdi, lekin qurg‘oqchilik bo‘lib, urug‘ga ham chuv tushishdi*. [Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K., 2022] P.Qodirov, Uch ildiz.

“O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”da taqlid so‘zlar ishtirokidagi iboralar 16 o‘rinda uchraydi:

5-jadval

adi-badi aytishdi	*chumchuq “pir” etsa, yuragi “shir” etadi*	*dong qotdi*
churq etmaydi	*yuragi tars yorilib keta yozdi*	*barq urdi*
“hash-pash” deguncha	*“gah”desa, qo‘liga qo‘nadigan qilib olgan*	*jig‘iga tegdi*
ko‘zini chirt yumib	*ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi*	*“lom-mim” demaslik*
yuragi shuv etdi	*yuragi taka-puka bo‘ldi*	*enka-tenkasi chiqdi*
yuragi shig‘ etdi [Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O., 2007]		

Mazkur iboralardan *dong qotdi, chumchuq “pir” etsa, yuragi “shir” etadi, churq etmaydi, yuragi shig‘ etdi, yuragi tars yorilib keta yozdi* 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchraydi, qolganlari kiritilmagan. Jadvalda mavjud yuqoridagi frazeologik birliklar izohli lug‘atlarning kelgusi nashrlariga kiritilishi uchun tavsiya sifatida ham keltirildi. Masalan,

6-jadval

Adi-badi aytishdi 1) turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashdi 2) so‘z tashlashdi, janjallashdi
Barq urdi gurkirab, g‘oyat tez yayrab-yashnadi
Enka-tenkasi chiqdi 1) qiynalib ketdi 2) to‘satdan qattiq ranjidi
“Gah”desa, qo‘liga qo‘nadigan qilib olgan juda itoatkor qilib qolgan
“Hash-pash” deguncha juda qisqa muddatda
Jig‘iga tegdi asabini qo‘zg‘atib o‘chakishtirdi
Ko‘zini chirt yumib tavakkal qilib
Ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi olayib qaradi

SN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-2, ISSUE-2

“Lom-mim” demaslik hech narsa demaslik, e’tiroz bildirmaslik
Yuragi shuv etdi bir lahza ich-ichidan qo‘rquv aralash hayajonlandi
Yuragi taka-puka bo‘ldi ruhan notinch, bezovta [Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O., 2007]

2006-yil nashr etilgan 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **37** ta taqlid so‘zli frazeologik birlik uchraydi. Ushbu iboralardan **6** tasi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dagi frazeologik birliklar bilan bir xil, **10** tasi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, **5** tasi “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”da uchraydi. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dagi **17** ta **46%**, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”dagi **44** ta **81%**, “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati”dagi **11** ta **69%** frazeologik birlik hozirgi izohli lug‘atlarda uchramaydi. Ularning 2,4,6-jadvallarda izoh va illyustrativ misollar asosida berilishi izohli lug‘atlar yangilanganda foydalanilishi va kiritilishi uchun qo‘shimcha manba vazifasini bajaradi.

Xulosa

Tahlillar va o‘rganilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, 2006-yil nashr etilgan izohli lug‘atda taqlid so‘zlarning illyustrativ misollari tarkibida 37 o‘rinda iboralar kiritilgan bo‘lib, yuqorida biz o‘rgangan manbalardagi frazeologik birliklarga nisbatan kam hisoblanadi. Vaholanki, taqlid so‘zlar asosida shakllangan iboralar xalq tilida bisyor hamda lug‘atlarda qamrovi kengaytirilishiga ehtiyoj mavjud. Jadvallarda berilgan iboralarning ko‘pchiligi kelgusida yangilanadigan izohli lug‘atlarda illyustrativ misollar sifatida foydalanilishi uchun tavsiya sifatida ham keltirildi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” barcha uchun asosiy manba hisoblanadi. Undan nafaqat o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar, balki o‘zbek tilini o‘rganishni maqsad qilgan xorijiy til vakillari ham foydalanishadi. Taqlidlarning izohli lug‘atlarda iboralar bilan berilishi tilimizda azaldan mavjud bo‘lganligi, o‘sha davrdagi shakllari, ma’no-munosabatlari haqida tasavvur uyg‘onishiga asos bo‘la oladi. Xalqimiz nutqida ko‘p uchrashi va ommalashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Абдураҳмонов Х., Рафиев А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 190.

2.Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. – Бухоро, 2021. – Б. 13.

3.Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р. Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент, 2008. – Б. 478.

4.Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. “Yangi asr avlodi. Toshkent. 2007.

5.Пинхасов П. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Лексикология ва фразеология. Тошкент: Ўқитувчи. 1969.

6.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. “Ўқитувчи” нашриёти. Тошкент. 1978.

7.Toshmurodova N. “Undov, taqlid, modal so‘zlarni o‘qitish usullari” bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2018. – B. 26.

8.Турсунов М. Инглиз ва ўзбек тилларида метафорик ибораларнинг лингвокогнитив таҳлили. – Бухоро, 2021. – Б. 46.

SN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
22-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2022

9.Yo‘ldosheva D. Til birligida taqlid so‘zlar // O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. – Toshkent: 2018. – B. 329-331.
10.Yo‘ldoshev M. “Cho‘lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati”, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1999. – B.59.
11.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4 жилд. – Тошкент: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б. 448.
12.G‘aniyeva G. O‘zbek va ingliz tillarida taqlid so‘zlar pragmatik tahlili // Congress book. 2018.